KUCH ADOLATDADIR Amir TEMUR

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN // HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA // ISSN 2181 - 483X WWW.ANDIJONSADOSI.UZ // № 35 (565) 2025-YIL, 22-AVGUST

«GAZETA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT VOSITASI»

O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi Andijon viloyat bo'limi, "Adolat mezoni" gazetasi tahririyati va Andijon shahar Favqulodda vaziyatlar bo'limi hamkorligida «Gazeta ma'naviyat va ma'rifat vositasi» mavzusida targ'ibot tadbiri o'tkazildi.





Unda, Andijon shahar Favqulodda vaziyatlar bo'limining rahbar va xodimlari hamda bo'lim raisi M. Artikova ishtirok etdi.

So'z olganlar bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar rivojlanib borayotgani, biroq bosma nashrlarning o'rni yuksakroq ekani, qolaversa, gazeta mutolaasida insonning aqliy rivojlanishi, ma'naviy ozuqa olishi xususida fikr bildirdilar.

Tadbirda ishtirokchilarga O'zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan "Adolat mezoni" gazetasining "Korrupsiyasiz jamiyat – taraqqiyot kafolati" nomli loyihasi doirasida maxsus sahifasi chop etilgan 33-soni bepul tarqatildi.

(Sahifani davomi 2-betda).

Z.QODIROV,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi Andijon viloyat bo'limi mutaxassisi.

"KORRUPSIYASIZ JAMIYAT - TARAQQIYOT KAFOLATI"

O'zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan "Adolat mezoni" gazetasining "Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati" loyihasi doirasidagi sahifa

IQTISODIY SUDLAR AMALIYOTIDA UCHRAYDIGAN AYRIM MUAMMOLAR VA ULARNING HUQUQIY YECHIMLARI

Iqtisodiy sudlar mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini huquqiy himoya qilish, xo'jalik subyektlari o'rtasidagi nizolarni hal etish va iqtisodiy tartibotni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiy faollik oshishi bilan birga iqtisodiy sudlarga murojaatlar soni ham ortib bormoqda. Shu bilan birga, amaliyotda ayrim muammolar sud ishlarini samarali va tezkor hal etishga to'sqinlik qilmoqda.

Iqtisodiy sud ishlarida taraflar o'rtasidagi nizoni hal etish jarayonida dalillar asosiy o'rin tutadi. Amalda esa, dalillarni to'plash, taqdim etish va ularning haqiqiyligini isbotlashda ko'plab muammolar yuzaga keladi. Bu holat ayrim ishlarda sud qarorining adolatli chiqishiga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Qonunchilik dalillarni turlari sifatida ashyoviy, yozma va raqamli dalillar, ekspertlarning xulosalari, mutaxassislarning maslahatlari (tushuntirishlari), guvohlarning ko'rsatuvlari, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlarini nazarda tutadi.

Odatda dalillar xo'jalik subyektlarining o'zida yoki uchinchi shaxslarda bo'ladi, ammo bir korxona boshqa korxonaga yuborgan hisob-faktura va tovar-transport yorliqlarini nusxasini saqlamaganligi, shartnoma yoki qo'shimcha kelishuv elektron xat orqali yuborilganligi, lekin pochta serverida ma'lumotlar o'chirilganligi taraf o'z da'vosini asoslab bera olmasliklariga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Iqtisodiy protsessual kodeksining 68-moddasi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga o'z talablari va e'tirozlariga asos qilib keltirayotgan holatlarni isbotlashini yuklaydi.

Iqtisodiy ishlar bo'yicha sudga murojaat qilgan da'vogarlar ko'p hollarda dalillarni to'liq va to'g'ri rasmiylashtirmagan bo'ladi. Masalan, mahsulot yetkazib berish shartnomasidagi majburiyat bajarilganligini isbotlash uchun faqat hisob-faktura, yoki mahsulot uchun pul to'langanligi haqidagi hujjatlar yetarli bo'lmaydi - ularda to'liq rekvizitlar, imzolar bo'lishi, mahsulot (tovar)lar yetkazib berish nazarda tutilgan shartnoma, bitim, kontrakt yoki qayd etib o'tilgan hujjatlardan tasdiqlangan nusxa; to'lov talabnoma-topshirig'i, akkreditiv, yetkazib beruvchi (ishlab chiqaruvchi) ning pattasi yoki uning tegishli tartibda tasdiqlangan nusxasi; da'vo summasining asosli hisob-kitobi; mahsulot (tovar) larni temir yo'l, suv yoki havo transporti bilan yetkazib berishda - transport yuk xati (konosament), mahsulot (tovar)larni avtomobil transportida yetkazib berishda - tovar-transport yuk xati yoki qayd etib o'tilgan hujjatlarning tegishli tartibda tasdiqlangan nusxalari; oluvchi – korxona vakiliga berilgan ishonchnoma va boshqa dalillar ilova qilinishi lozim.

Ba'zi xo'jalik subyektlari mavjud hujjatlarni taqdim etmasdan uni yashirib, o'zi uchun ijobiy natijaga erishishni xohlaydi.

Shuni nazarda tutish lozimki agar taraf sud tomonidan talab etilayotgan dalilni o'zida ushlab turgan va sud so'rovi bilan belgilangan muddatda uni taqdim etmayotgan bo'lsa, undagi ma'lumotlar shu taraf manfaatlariga qarshi qaratilgan deb taxmin qilinadi va u tomonidan tan olingan deb hisoblanadi.

Taraflar dalil sifatida taqdim etilgan hujjatlar haqiqiy ekanligini tasdiqlash zarur. Elektron faylning kim tomonidan va qaysi sanada yuborilganini aniqlash mushkulligi, nusxa hujjatlar muhrsiz va imzosiz bo'lib, sudda haqiqiy deb qabul qilinmasligi, foto yoki video dalilning montaj qilinmaganini ekspertiza orqali aniqlash zarurati borligi dalillarni ishonchsiz deb topilishiga yoki iqtisodiy ishni uzoq muddatda ko'rilishiga sababchi bo'lishi mumkin.

Yana bir muammo sifatida shuni ko'rsatish mumkinki tashqi savdo shartnomalarida dalillar xorijiy tilda va boshqa davlat standartlariga muvofiq bo'ladi. Bunda xujjat tarjimasi noto'g'ri qilinganligi, xorijiy notarial tasdiq talab qilingan, lekin hujjat apostil yoki konsullik legalizatsiyasidan o'tkazilmaganligi, alal oqibat ushbu hujjat yuridik kuchga ega emasligiga olib keladi.

Ishga daxldor bo'lmagan dalillarni taqdim etilishi ham muammolardan biridir.

Xulosa qilish mumkinki, Iqtisodiy sudlarda dalillarni taqdim etish va isbotlash jarayonidagi qiyinchiliklar ko'p hollarda taraflarning tayyorgarlik darajasi va protsessual talablarga amal qilish-qilmasligiga bog'liq. Muddat, haqiqiylik va tegishlilik mezonlariga rioya etish orqali bunday muammolarning oldini olish mumkin.

J.KARABOYEV,
Bo'ston tumanlararo iqtisodiy sudi raisi.

AYOL – SOG'LOM AVLOD TARBIYACHISI

Ayol oila va jamiyatda barqarorlik muhitining yaratuvchisi, sog'lom avlod tarbiyachisidir. Shu bois, har bir jamiyatning rivojlanish darajasi ayolga bo'lgan e'tiboriga qarab baholanadi. Mamlakatimizda so'nggi yillarda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoyalash, gender tenglikni ta'minlash, oila va jamiyatda ayollar o'rnini yuksaltirish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumanida joylashgan harbiy qismlarning birida Xotin-qizlar kengashi a'zolari tomonidan harbiy xizmatchilarning turmush o'rtoqlari ishtirokida "Kitobxonlik soati" tashkil etildi. Tadbir davomida xotin-qizlarning faolligi, ular uchun belgilangan imtiyozlar, yaratilgan imkoniyatlar, onalar va bolalar sog'ligini mustahkamlash yo'lida sa'y-harakatlar jamiyat taraqqiyotining muhim omili ekanligi e'tirof etildi.

T.O'LMASOV,
DXX CHQ harbiy xizmatchisi.

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT – TARAQQIYOT KAFOLATI

O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

QONIMDA KORRUPSIYA BOR...

HA, TO‘G‘RI O‘QIDINGIZ. MENING QONIMDA KORRUPSIYA BOR. NEGA DEYSIZMI? BUNI USHBU MAQOLANI OXIRIGACHA O‘QISANGIZ TUSHUNIB OLASIZ. BALKI SIZNING QONINGIZDA HAM KORRUPSIYA BORDIR. MEN BOSHLADIM.

Tug‘ilganimda quloqlarim ostida birinchi bo‘lib azon aytilishi o‘rniga, hamshiralarning “Suyunchi, suyunchi” degan so‘zlari eshitildi. Ko‘z oldimda esa otamning xursandchilikdan balki majburlikdan ularning cho‘ntaklariga pul solganini ko‘rdim.

- Palondaqa, pismadondaqa dorilarni olib kelishingiz kerak. – doktor dadamning qo‘liga qog‘ozlarni tutqazdi.

- Haligi, - dadam iymanib cho‘ntagini kovladi.

- Ha, mayli o‘zimizda boridan foydalanib turamiz – doktorning ko‘zida quvonch uchqunladi.

Shifoxonadan meni olib chiqib ketish uchun oxirgi puliga mashina yo‘llagan otam, eshik oldida qator turgan hamshira-yu doktorlarni ko‘rib, yana cho‘ntak kovladi…

Oradan bir muncha vaqt o‘tdi. Endi meni bog‘chaga joylash kerak edi. Otam qo‘limdan yetaklab bog‘cha opaning oldiga olib kirdi. Sochlari yozilgan opaning ensalari qotib:

- Hozir joy yo‘q. Navbat uzun. Biroq…

Dadam qo‘lidagi konvertni stol ustiga qo‘ydi. Ish bitdi. Endi men bog‘chaga bora boshladim. Yillar o‘tdi. Endi meni maktab darvozasi oldida otamning qo‘lidan tutgancha ichkariga kirayotganimni ko‘rishingiz mumkin edi.

Qorin qo‘ygan direktor maktabga yaqin hududdan emasligimizni aytib, eshikni yopdi. Ortimizdagi mo‘ylovdor amaki esa 2-3 banka bo‘yoq bilan ishimizni bitirib berishini ta’kidladi. Tabiiyki, shu bilan ishimiz oson bitishini sezgan otam do‘konga chopdi.

Yillar men o‘rtoqlarim bilan quvalashib yurganday tez o‘tib ketdi. Endi men oliy ta’lim muassasasiga o‘qishga kirishim kerak edi. Amallab kirib oldim. Dadamning shu vaqtgacha to‘plagan pullari-yu qo‘y-mollar sabab.

- Domla, sessiyani a’loga yopishim kerak.

- Mana, a’loga yopasan. Kitobim chiqqan. Shundan 4 ta olsang 4, 5 ta olsang 5 bahoing.

Yotoqxonamda bir xil 5 tadan kitoblar qalashib yotardi. Yotoqxona foyesida esa ushbu joyga kirish uchun olib bergan gullarim qator turardi.

Diplom himoyam uchun rahbarimga sovg‘a, yaxshi o‘qitgani uchun ustozlarimga sovg‘a, mana shunday qilib o‘qishni ham tamomladim. Navbat ishga joylashishga.

Katta bir tashkilotning eshigini taqillatib bordim. Po‘rim kiyingan, galstuk taqib olgan rahbar.

- Ish stajingiz yetarli emas. Lekin buning yo‘li bor. Amallasa bo‘ladi…

Bu yo‘lni otamdan o‘rgangan edim. Topgan-tutganim, qarz havola qilib ishga joylashdim. Hammasi joyida, endi mening ishim bor.

Ishlar bir tekisda ketardi, kunlarning birida oldimga bir kishi keldi. Hujjatlarida muammo bor ekan. Uni hal qilish qo‘limdan kelardi va

- Hujjatlaringizda muammo bor. Buni hal qilish qiyin. Ammo qilsa bo‘ladi… - miyig‘ida ishora qildim. Tushungan odam ekan konvertni stol ustiga qo‘ydi va ishi oson bitganidan xursand bo‘ldi.

Hayotim mana shunday ishlarimni oson yo‘l bilan hal qilish uchun yaralganday edi. Navbatda turib qolsam ham, biror muammoga yo‘liqsam ham hamma hammasini osongina, silliqqina hal qilib chiqaverardim.

Oradan yillar o‘tdi, umr shami tugab borardi. Og‘ir xastalik bilan kurashib yotar ekanman farzandimning so‘zlari quloqlarim ostida jaranglashni boshladi:

- Go‘rkovga 2-3 so‘m berib yaxshi joydan qabr tayyorlatib qo‘ydim…

Qon bilan kirgan jon bilan chiqadi. Korrupsiya mening qonimda bor edi…

Abduvali QURBON.

TA’LIMDA KORRUPSIYA – KELAJAKKA XAVF



Korrupsiya – jamiyatning yashirin dardi

Bugungi globallashuv davrida korrupsiya dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida mavjud muammo sifatida qaralmoqda. U iqtisodiyotdan tortib siyosatgacha, sog‘liqni saqlashdan tortib ta’lim tizimigacha kirib bormoqda. Eng achinarlisi, ta’lim maskanlarida korrupsiya kuchayishi nafaqat o‘quvchi va o‘qituvchilar o‘rtasidagi ishonchga putur yetkazadi, balki butun jamiyatning kelajagini xavf ostiga qo‘yadi.

Bilim qadri pulga tenglashib qolyaptimi?

Ta’lim tizimida korrupsiya ko‘rinishlari ko‘p uchraydi. Ayrim o‘quvchilar imtihonlardan o‘tish yoki yuqori baho olish uchun o‘qituvchiga pul taklif qilishadi. Ba’zida talabalar o‘qituvchilarning tug‘ilgan kunlari yoki bayramlarda sovg‘a berishga majbur bo‘lishadi. Bu oddiy hol emas, balki korrupsiya deb ataluvchi og‘ir illatdir.

Keng tarqalgan shakllar quyidagilar:

• Bahoni sotib olish – pul yoki qimmatbaho sovg‘a evaziga baho qo‘yish.

• Imtihonlarda adolatsizlik – moddiy manfaat yoki tanish-bilishchilik asosida baholash.

• Majburiy sovg‘alar – bayram yoki tug‘ilgan kun bahonasida sovg‘a qilishga majburlash.

• Pullik darslarga majburlash – ayrim o‘qituvchilarning o‘quvchilarni faqat o‘zidan qo‘shimcha dars olishga undashi.

Bunday illatlar oqibatida halol mehnat qiluvchi, bilimga chanqoq o‘quvchilar kamsitilib, pul evaziga natijaga erishuvchilar ustunlikka ega bo‘lib qolmoqda.

Yoshlarning kelajagi bilan o‘ynash – jamiyat kelajagi bilan o‘ynash

Korrupsiya oddiygina bir shaxsning manfaatini emas, balki butun jamiyatning kelajagini xavf ostiga qo‘yadi. Chunki:

• Bilim emas, pul hal qiladi degan noto‘g‘ri qarash shakllanadi.

• Malakasiz mutaxassislar ko‘payadi.

• Jamiyatda adolat va halollikka bo‘lgan ishonch susayadi.

• Taraqqiyot sur’atlari sekinlashadi.

Ertaga korrupsiyaga o‘rgangan yosh yurtning rahbari yoki mutaxassisi bo‘lsa, u halollikni emas, manfaatni tanlaydi. Bu esa davlat rivojiga katta zarba beradi.

Statistik ma’lumotlar – muammoning ko‘lamini ko‘rsatadi.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, ta’lim tizimidagi korrupsiya o‘quvchilarning bilim darajasini sezilarli pasaytiradi. Jamiyatda esa “Bilim emas, pul hal qiladi” degan xatarli qarash ildiz otadi. Natijada malakasiz mutaxassislar ko‘payib, davlatning iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanishida jiddiy muammolar yuzaga keladi.

Korrupsiyaga qarshi kurash – umumiy vazifa

Ta’lim tizimidagi korrupsiya bilan kurashishda faqat hukumat yoki ta’lim vazirligining choralari yetarli emas. Bu – butun jamiyatning umumiy vazifasidir. O‘qituvchi, o‘quvchi, ota-ona va jamoatchilik bu illatga qarshi birdek kurashishi lozim.

Shu maqsadda quyidagi choralarni amalga oshirish muhim:

• Baholash tizimida shaffoflikni ta’minlash.

• Imtihonlarni elektron nazorat ostida o‘tkazish.

• O‘qituvchilarning moddiy sharoitini yaxshilash.

• Ota-onalarni jarayonga faol jalb etish.

• Yoshlar o‘rtasida halollik va adolat g‘oyalarini keng targ‘ib qilish.

Xalqaro tajriba nimani ko‘rsatadi?

Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, korrupsiyaga qarshi kurashgan davlatlar qisqa vaqt ichida katta natijalarga erishgan. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda imtihonlar onlayn tarzda, maxsus nazorat kameralari ostida o‘tkaziladi. O‘quvchilarning bilimini baholashda inson omili minimal darajaga tushirilgan. Bunday tizim halollikni ta’minlash bilan birga, o‘quvchilarni haqiqiy bilim olishga undaydi.


Halollik – kelajakning poydevori

Ta’lim – yurt kelajagining poydevori. Agar bu poydevor korrupsiya bilan bulg‘ansa, kelajak ham xatar ostida qoladi. Shunday ekan, bugun har birimiz korrupsiyaga qarshi kurashda o‘z hissamizni qo‘shishimiz shart.

O‘qituvchi – halollik timsoli, o‘quvchi esa mehnat va bilim timsoliga aylansa, ta’lim tizimi chinakam ma’naviyat va ma’rifat o‘chog‘iga aylanadi. Faqat bilim va mehnatgina insonni yuksaklikka olib chiqishini yoshlar anglab yetgandagina, yurtimiz taraqqiyotining mustahkam poydevori yaratiladi.

Roziya SHARIPOVA.

MEDIATSIYA INSTITUTINING NIZOLARNI MUQOBIL HAL QILISH USULLARI TIZIMIDAGI O‘RNI



Xalqaro amaliyotda nizolarni huquqiy hal qilishda quyidagi yarashtirish taomillari keng qo‘llanilib kelingan: nizo tomonlarining o‘zlari tomonidan muzokaralar olib borish yo‘li bilan hal qilish (negotiation), tomonlarning muayyan bir kelishuvga erishishiga ko‘maklashuvchi mustaqil vositachi ko‘magida nizoni hal qilish (mediation, conciliation), nizo tomonlari tomonidan kelishuvga erishishning imkoni bo‘lmagan taqdirda nizoni arbitraj tartibida tartibga solish vakolatiga ega bo‘lgan vositachi-arbitr yordamida hal qilish (med-art), ish muhokamasini rahbarlik qiluvchi korxona rahbari, uning yuristi va mustaqil uchinchi shaxslar tomonidan nizoni tartibga solish (mini-trial).

Shu o‘rinda nizolarni muqobil hal qilish tushunchasiga to‘xtalib o‘tish joiz. Nizolarni muqobil hal qilish – davlat tomonidan o‘rnatilgan tartib qoidalarini chetlab o‘tgan holda huquqiy nizolarni hal qilish mexanizmlarining yig‘indisidir. Ushbu tushunchaning institutsionallashuvi 1970-yillarda boshlangan bo‘lib, xususan, AQSHda ushbu institutning rivojlanishi fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, irqiy kamsitilishlarga qarshi kurash bilan bog‘liq bir qator normativ hujjatlarning qabul qilinishi bilan bog‘liq.

Sudlardagi nizolar sonining oshishi sudlar yuklamasining ortishiga va buning natijasida, sud muhokamalariga ketadigan vaqt va xarajatlarning soni oshishiga olib keldi. Shu sababli, Amerika advokatlar assotsiatsiyasi, AQSH Kongressi va shtatlar hukumatlarining ko‘magida Nizolarni muqobil hal qilish instituti keskin rivojlandi. 1990-yillardayoq “Fuqarolik sud ishlarini isloh qilish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinganidan so‘ng, ko‘pchilik okrug sudlari nizolarni muqobil hal qilish usullarini qo‘llashga ruxsat berishdi.

Bugungi kunga kelib ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda huquqiy nizolarni hal qilishda eng ommalashgan usul sifatida keng tarqaldi. Nizolarni muqobil hal qilish yoki sudlarda nizolarni ko‘rishda muqobil hisoblanuvchi nizoni hal qilishning keng ko‘lamli mexanizmini nazarda tutadi.

Davlatimizda ham nizolarni muqobil usulda hal qilish ommalashgan usul sifatida keng rivojlanmoqda. Ushbu taomillar qonunchilikda belgilangan tartib va shartlarda amalga oshiriladi. Jumladan, mediativ kelishuvga erishish (“Mediatsiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 15-29-moddalar) yoki kelishuv bitimini tuzilishiga doir shartlar normativ hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi 131-134-moddalarda belgilab qo‘yilgan.

Nizolarni muqobil hal qilish tushunchasi bilan bir qatorda “yarashtirish taomillari” tushunchasi ham qo‘llanilib kelinadi. IPK 16-bobida yarashtirish tartib taomillariga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, biroq yarashtirish taomillari tushunchasiga adabiyotlarda ham, shuning Iqtisodiy protsessual kodeksida ham unga aniq bir ta’rif keltirilmagan.

Shunday ekan, biz yarashtirish taomillari deyilganda vujudga kelgan nizoni tomonlarning o‘zaro ixtiyoriy roziligi asosida hal qilish va tartibga solishga qaratilgan nizolarni muqobil hal qilish usullaridan biri deb ta’riflashni o‘rinli deb hisoblaymiz.

Iqtisodiy sudlarda yarashtirish tartib taomillari sifatida qo‘llaniladigan eng keng tarqalgan taomillar: kelishuv bitimi va mediatsiyadir.

Mediatsiya yarashtirish tartib-taomili sifatida taraflarning ixtiyoriy roziligi va uchinchi shaxs mediator ko‘magida o‘zaro maqbul qarorga erishish jarayonidir. Mohiyatiga ko‘ra, mediatsiya yarashtirish taomillaridan biri bo‘lib, unga ko‘ra nizo taraflari nizoni tinch yo‘l bilan hal etish hamda taraflarning maqbul qarorga erishish maqsadida uchinchi shaxs mediatorga ushbu jarayonni amalga oshirishda ishonch bildirishlarini anglatadi. Mediator mazkur holatda taraflarga nizoni chuqur o‘rganish, uning sabablari to‘g‘risida umumiy tushunchalarga ega bo‘lish hamda nizoni hal qilishda ko‘maklashadi.

Mediativ kelishuvda taraflar ma’lum majburiyatlarni bajarish haqida kelishgan bo‘lsalar-da, hech qanday huquqiy oqibat keltirib chiqarmaydi. Shu sababli mediativ kelishuv shartlari bajarilmagan taqdirda, taraflar takroran sudga murojaat etish huquqiga egadirlar.

Taraflarning mediativ kelishuvga erishishlari natijasida sud da’voni ko‘rmasdan qoldiradi va davlat boji undirilmaydi. Chunki nizo suddan tashqarida, sudning ishtirokisiz hal etiladi, ariza taqdim etishda oldindan to‘langan davlat boji da’vogarga qaytariladi (“Davlat boji to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 18-modda).

Mediativ kelishuv yozma shaklda tuziladi va uni tuzgan shaxslar yoki ularning vakillari tomonidan imzolanadi.

Kelishuv bitimi uni tuzgan shaxslar sonidan bitta ortiq nusxada tuziladi va imzolanadi. Ushbu nusxalardan biri ish materiallariga qo‘shib qo‘yiladi.

Mediativ kelishuv to‘g‘risidagi bitimda quyidagilar ko‘rsatiladi:

-mediator(lar), mediatsiya taomili taraflari to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

-mediatsiya shartlari va mediatsiya taomili o‘tkaziladigan joy;

-mediatsiya taomili olib boriladigan til;

-nizo predmeti;

-mediatsiya ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari;

-mediator (mediatorlar) xizmatlariga haq to‘lash hamda mediatsiyaga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha xarajatlarni qoplash shartlari va tartibi;

-axborotning maxfiyligi shartlari va uni mediatsiya ishtirokchilari tomonidan oshkor qilish oqibatlari;

-mediator va mediatsiya taraflarining mediatsiya shartlarini buzganlik uchun javobgarligi;

-mediatsiyani tugatish tartibi va asoslari.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, mediatsiya institutini huquqni qo‘llash amaliyotiga keng joriy etishga qaratilgan islohotlar jismoniy va yuridik shaxslar hamda tadbirkorlik subyektlari o‘rtalaridagi nizolarni sudgacha ko‘rib chiqish tartibini belgilab, nizolarni o‘zlariga ma’qul shaxs (mediator) ishtirokida, tegishli shartlar asosida taraflarga qulay joy va vaqtda hal etish imkonini berishi bilan ham ahamiyatlidir.

X. TO‘YCHIYEV,
Bo‘ston tumanlararo iqtisodiy sudi sudyasi.

HUDUDLARDA “YANGI O‘ZBEKISTON” MASSIVLARI PAYDO BO‘LADI

Prezidentning 2021-yil 9-dekabrdagi “Yangi O‘zbekiston” massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-32-son Farmoni qabul qilingan edi.

Hujjatga asosan aholining uy-joy sharoitini yaxshilash, hududlarda zamonaviy shaharsozlik talablari asosida ko‘p qavatli uy-joylar, ijtimoiy soha va infratuzilma obyektlari hamda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari qurilishini jadallashtirish, yer resurslaridan oqilona foydalanish va aholi punktlarining urbanizatsiya jarayonlarini rivojlantirish maqsadida tuman (shahar) markazlariga yaqin va uy-joyga talab yuqori bo‘lgan hududlarda 29 ta “Yangi O‘zbekiston” massivlari qurilishi belgilangan.

Prezidentimiz topshirig‘iga asosan Andijonimizda “Yangi O‘zbekiston” massivlari bunyod etilmoqda. Loyihalarni amalga oshirishda ishbilarmonlar va tadbirkorlar hamkorlikka taklif etildi.

«Yangi O‘zbekiston» massivlarida qurilayotgan uy-joylar uchun barcha muhandislik tarmoqlari (markazlashgan issiqlik, ichimlik suvi, oqova tarmoqlar, elektr ta’minoti) yashil hududlar, ijtimoiy soha (maktab, bog‘cha, shifoxona) obyektlari davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Tadbirkorlar mazkur yer uchastkalarini “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali sotib olishlari va uy-joy qurishlari mumkin. Sotib olingan yer uchun mablag‘larni muddatli bo‘lib to‘lash imkoni mavjud.



Jamshidbek ISROILOV,
“Elektron-onlayn auksionlarni tashkil etish” AJ Andijon viloyati hududiy vakili.

МЕРОСХЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Андижон шаҳрида яшаб, 2020 йил 21 сентябрь куни вафот этган марҳум **ХОДЖАМБЕРДИЕВ КОМИЛЖОН ГУЛЯМОВИЧ**,

Андижон шаҳрида яшаб, 2024 йил 30 сентябрь куни вафот этган марҳум **TILYABAYEV NEMATULLO TADJIBAYEVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Бобур шохкўчаси, 30/А-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус И.А.Узакбаев нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2025 йил 11 май куни вафот этган марҳум **KARABAYEV MARIPJON TOXTASINOVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ф.Акбаров нотариал идорасига,

Избоскан тумани, Тинчлик МФЙ, А.Навоий кўчасидаги уйда яшаб, 2023 йил 21 январь куни вафот этган марҳум **ABDULLAYEV ALIJON NASIRDINOVICH,**

Избоскан тумани, Гуркиров МФЙ, Ипак йўли кўчасидаги уйда яшаб, 2009 йил 15 июль куни вафот этган марҳум **БАХРОМОВА САХОДАТХОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Избоскан тумани, Нақшбанд кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус С.К.Ботиров нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Дукчи Эшон МФЙ, Жоме кўчасидаги уйда яшаб, 1977 йил 5 сентябрь куни вафот этган марҳум **АБДИЖАББАРОВ ИСАКЖОН,**

Марҳамат тумани, Найман МФЙ, Тадбиркор кўчасидаги уйда яшаб, 2021 йил 31 октбрь куни вафот этган марҳум **ИСМОИЛОВ ХОШИМЖОН ТЎХТАСИНОВИЧ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Бобур шохкўчаси, 38-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Т.Усмонов нотариал идорасига мурожаат қилишлари мумкин.

Марҳамат тумани, Мингтепа МФЙ, Ипак йўли кўчасидаги уйда яшаб, 2020 йил 22 сентябрь куни вафот этган марҳум **ҚУРБАНОВ ДЖУРА КИЧИКАХУНОВИЧ,**

Марҳамат тумани, Увайсий МФЙ, Тошлоқ-1 кўчасидаги уйда яшаб, 2025 йил 20 май куни вафот этган марҳум **ДАВИДОВ АБИДЖОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Мустақиллик кўчаси, 114-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.И.Алиев нотариал идорасига,

Пахтаобод туманидаги уйда яшаб, 2025 йил 18 февраль куни вафот этган марҳум **ДАДАБАЕВ УБАЙДУЛЛА ИМЯМИНОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Озод диёр кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.Ў.Тўйчибоев нотариал идорасига,

Қўрғонтепа тумани, Х.Ғофуров кўчаси, 2 уйда яшаб, 2021 йил 14 май куни вафот этган марҳум **МИРХАЛИЛОВ ИНАМЖАН ҒУЛАМИДИНОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Қўрғонтепа шаҳар, Мустақиллик кўчаси, 98-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус С.А.Иминов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Бувайдо МФЙда яшаб, 2010 йил 22 январда вафот этган **ISOMIDDINOV XOSHIMJON,**

Шаҳрихон тумани, Қумтепа МФЙда яшаб, 2005 йил 15 сентябрда вафот этган **TOSHBOLTAYEV ADXAMJON**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Ахмаджонов нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

YO‘LLAR RAVON BO‘LSA...

Yo‘llar har bir mamlakat iqtisodiyotining umumiy rivoji, aholi farovonligining ko‘zgusi va har bir hudud investitsiyaviy jozibadorligi hisoblanadi.

Shu bois so‘nggi yillarda respublikamizda viloyat va tumanlar markazlarini bog‘lovchi keng tarmoqli transport aloqalari hamda davlatlararo yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirishga iqtisodiyotimiz ravnaqining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tibor qaratilmoqda.

Mazkur omillar Andijon viloyatida ham hududning barcha toifadagi avtomobil va mintaqaviy tasnifdagi (ichki ko‘cha) yo‘llarning yo‘l qoplamalari holatini zamon talabiga moslashtirish, ekspluatatsiya qilish xususiyatlarini oshirish orqali yo‘l-transport infratuzilmasini yanada takomillashtirish, ayniqsa, qishloq joylarida harakat uchun qulay shart-sharoitlar yaratish vazifalarini taqozo etadi.

Andijon viloyatida jami 13 306 kilometr avtomobil yo‘llari mavjud bo‘lib, shundan umumiy foydalanishdagi yo‘llar 2 422 kilometrni, shahar ko‘chalari va ichki xo‘jalik yo‘llari 10 884 kilometrni tashkil etadi.

Bugungi kunda avtomobil yo‘llarining 2 071 kilometr (16 foiz) (umumiy 530 km – 22 foiz, ichki 1 540 kilometr – 14 foiz) qismi ta’mirtalab ahvolda bo‘lsa, shundan 161 kilometr (1,2 foiz) tuproq yo‘llardan iborat.

Viloyatdagi 1 085 ta ko‘prik inshootlarining 630 tasi (58 foiz) umumiy foydalanishdagi va 448 tasi (41 foiz) ichki yo‘llarda joylashgan, 7 tasi (1 foiz) Suv xo‘jaligi vazirligi tasarrufida.

Bugungi kunda ko‘prik inshootlarining 344 tasi (32 foiz) ta’mirtalab va 10 tasi (1 foiz) avariya oldi holatida hisoblanadi.

Shundan, Qo‘mita tasarrufidagi ko‘priklarning 83 tasi (13 foiz) ta’mirtalab va 8 tasi (1,3 foiz) avariya oldi holatida.

Shu o‘rinda 2025-yil birinchi yarmida amalga oshirilgan ishlarga to‘xtalib o‘taylik.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida 189,18 mlrd so‘m miqdorida yo‘l ishlari bajarilib, 346,7 kilometr avtomobil yo‘llarida rekonstruksiya va ta’mirlash ishlari amalga oshirilgan.



Jumladan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida 54,1 mlrd so‘m o‘zlashtirilib, 4,2 kilometr avtomobil yo‘llari rekonstruksiya qilindi va ta’mirlandi. Shundan Xonobod shahridagi M41 “Bishkek-Dushanbe-Termiz” avtomobil yo‘lining 585,2 kilometr qismidagi “Shaxrixonsoy” soyi ustidan “Keskanyor” ko‘prik qurilishini misol qilish mumkin. Loyihaga ko‘ra yo‘l o‘tkazgichning umumiy uzunligi 101 metr bo‘lib, qayta qurish ishlariga 13 mlrd so‘m mablag‘ sarflandi. Ko‘prik qurilishi orqali Qirg‘iziston Respublikasi bilan yo‘l bog‘landi, yo‘l harakati yengillashtirildi. Shuningdek, ko‘prik qurilishi shahar aholisiga yordam berish va ularning vaqtini tejash maqsadida juda muhim ahamiyatga egadir.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini rekonstruksiya qilish bo‘yicha 48,8 mlrd so‘m miqdorida yo‘l ishlari bajarilgan.

Sanoat zonalarida 5,3 mlrd so‘m miqdorida yo‘l ishlari bajarilib, 4,2 kilometr yo‘llar foydalanishga topshirildi.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini texnik soz holatda saqlash bo‘yicha 81,3 mlrd so‘m miqdorida yo‘l ishlari bajarilib, 202,1 kilometr avtomobil yo‘llari ta’mirlandi va holati yaxshilandi.

Transport va piyodalarning xavfsiz harakatini tashkil qilish bo‘yicha 1241 ta yo‘l belgilari, 5 ta yo‘naltiruvchi pano, 21 dona svetofor va 2,8 kilometr yo‘l to‘siqlari o‘rnatildi, 5 ming kilometr yo‘l chiziqlari chizildi, aholi punktlarida 10 kilometr trotuar va velosiped yo‘laklari hamda 5,4 kilometr sun’iy yoritish tizimi barpo etildi. Bunga loyiha qiymati 4,2 mlrd so‘m bolgan Oltinko‘l tumanidan o‘tgan D 105 “Farg‘ona xalqa yo‘li”ning 121-141 kilometr, Bo‘ston va Baliqchi tumanlaridan o‘tgan D130 “Bo‘ston – Baliqchi” yo‘lining 0-27 kilometr qismini misol keltirish mumkin. Bu yollar ekspluatatsiya qilish uchun xususiy pudratchilarga berildi.

“Tashabbusli byudjet” dasturi (2024-yil 2-mavsum) doirasida 43,1 mlrd so‘m mablag‘ hisobiga 108,9 kilometr ichki yo‘llar ta’mirlandi, bundan tashqari 23 kilometr tuproq yo‘llar shag‘allashtirildi.

Shuningdek, “Tashabbusli byudjet” dasturining 2025-yil 1-mavsumi doirasida 46,0 mlrd so‘m mablag‘ hisobiga 158,1 kilometr ichki yo‘llar ta’mirlandi.

“Drayver loyihalar” dasturi doirasida 10,2 mlrd so‘m hisobiga 15,2 kilometr, “Hududlarni kompleks rivojlantirish” dasturi doirasida 0,4 mlrd so‘m hisobiga 0,4 kilometr ichki yo‘llari ta’mirlandi.

Avtomobil yo‘llarida joylashgan 5 dona ko‘priklarda ta’mirlash va tiklash ishlari olib borilib, bular uchun 9,4 mlrd so‘m sarflangan.

Bundan tashqari, 105 kilometr umumiy foydalanishdagi yo‘l yoqalari daraxt ekish uchun 521 nafar fuqaro va tadbirkorlarga o‘zaro manfaatli shartnomalar asosida ijaraga berildi.

Marhamat tumanidagi D 140 “Shahrixon shahri – Asaka shahri – Marhamat shahri” 30 kilometri hamda Asaka tumanidagi D 105 “Farg‘ona halqa yo‘li” 176 kilometrlarida yuk avtomobillarining vazni va hajmini nazorat qiluvchi o‘lchov-nazorat shoxobchalari o‘rnatiladigan joylar auksion savdolariga chiqarilib, g‘olib tadbirkorlar aniqlandi.

Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatimiz taraqqiyot yo‘lini tanlagan ekan, yo‘llarimizning zamon talablariga mosligi ko‘zlagan marralarga erishishning muhim omilidir.

M.ORTIQOVA,
“Adolat mezoni” maxsus muxbiri.

“QO‘RG‘ONTEPA DON MAHSULOTLARI” АЖ АКЦИЯДОРЛАРИ ДИҚҚАТИГА!

“Qo‘rg‘ontepa don mahsulotlari” АЖ акциядорларининг навбатдан ташқари умумий йиғилиши 2025 йил 4 сентябрь куни соат 10:00 да Андижон вилояти, Қўрғонтепа тумани, Юксалиш МФЙ, Бобурийлар кўчаси 100-уйда жамият маъмурият биносида ўтказилади. Акциядорларни рўйхатга олиш соат 9.00 да бошланади.

КУН ТАРТИБИ:

1. Жамият акциядорларининг навбатдан ташқари умумий йиғилишининг регламентини тасдиқлаш.
2. Саноқ комиссияси таркибини сайлаш.
3. Тижорат банкларидан кредит маблағи олиш тўғрисида.
4. Жамият Кузатув Кенгаши аъзоларини ўз вазифасини бажариб турган давр учун тўланадиган ҳақ миқдорини белгилаш бўйича Низомга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш.
5. Жамият ҳудудига музлаткич (холодильник) омборхона қуриш тўғрисида.

Навбатдан ташқари Умумий йиғилишда қатнашиш акциядорлар шахсини тасдиқловчи ҳужжатлар билан келишлари, вакиллар, жумладан ҳуқуқий шахслар қонунчиликда белгиланган тартибда расмийлаштирилган ваколатнома, жисмоний шахслар эса нотариал тартибда тасдиқланган ваколатномалар асосида қатнашишлари лозимлигини билдирамиз.

Акциядорларга тақдим этилиши лозим бўлган,умумий йиғилиш ўтказилиши билан боғлиқ маълумотлар жамият кузатув кенгаши ва қуйидаги электрон ва веб сайтдан олишлари мумкин. **(манзил:Андижон вилояти, Қўрғонтепа тумани, Юксалиш МФЙ, Бобурийлар кўчаси 100 – уй,**

web.sait: kurgantepadon.uz el.pochta: kurgantepadon@mail.ru

Акциядорларга умумий йиғилиш ўтказилиши ҳақидаги хабар бериш учун акциядорлар реестри 2025 йил 12 август ҳолатига ҳамда йиғилишда қатнашиш учун 2025 йил 27 август ҳолатига тузилади.

Реестрни ёпишга қарор қилган орган: Кузатув кенгаши

ADOLAT MEZONI
MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas’uliyati cheklangan jamiyati
Muharrir: M.ORTIQOVA
Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy.
Telegram: (+998 99) 995-19-66
E-mail: and_mezoni@inbox.uz
Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010-yil 16-martda 04-040 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi - 2536
Gazeta tahrirriyat kompyuter bo‘limida terildi va sahifalandi.
«ZAKOVAT» nashriyot uyi MCHJda original maket asosida chop etildi.
Chop etishga topshirish vaqti 21.08.2025-yil, soat 11.00.
Chop etishga topshirildi 21.08.2025-yil, soat 14.00.
Korxona manzili: Kosonsoy shahri, Chorbog‘ ko‘chasi, 17-uy.
Hajmi 2 bosma taboq. Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma № . 188 nusxada bosildi.
Navbatchi: M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o‘g‘li